

OLIY O'QUV YURTLARI VA KORXONALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li

Qarshi davlat universiteti doktranti,

Qarshi Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-1436-7531

E-mail: sharopovtemirmalik@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlarning integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni tahlil qilinadi. Mehnat bozorining talablariga mos mutaxassislar yetishtirish tizimini shakllantirish, korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalariga tayanib, oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bakalavr, magistr, tashkilot, oliy ta'lim, kadrlar, integratsiya, korxona, ish beruvchi, ilm-fan, innovatsiya, innovatsion tizim, rahbar, bilim, ishlab chiqarish, talaba, boshqarish, kadrlar tayyorlash.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс подготовки высококвалифицированных кадров на основе интеграции высших учебных заведений и работодателей. Обоснована актуальность формирования системы подготовки специалистов в соответствии с требованиями рынка труда, расширения сотрудничества между предприятиями и образовательными учреждениями, а также внедрения инновационных подходов. Кроме того, на основе результатов исследования представлены рекомендации по эффективному управлению интеграцией высшего образования и производства.

Ключевые слова: бакалавр, магистр, организация, высшее образование, кадры, интеграция, предприятие, работодатель, наука, инновации, инновационная система, руководитель, знание, производство, студент, управление, подготовка кадров.

Abstract

This article analyzes the process of training highly qualified personnel based on the integration of higher education institutions and employers. The relevance of

forming a system for training specialists in accordance with labor market requirements, expanding cooperation between enterprises and educational institutions, and implementing innovative approaches is substantiated. In addition, based on research results, recommendations for effectively managing the integration of higher education and production are provided.

Keywords: bachelor, master, organization, higher education, personnel, integration, enterprise, employer, science, innovation, innovation system, manager, knowledge, production, student, management, personnel training.

KIRISH

Globallashuv davrida oliy o'quv yurtlari bilan ish beruvchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli integratsiyaning rivojlanishi mehnat bozorining ehtiyojlariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil sanaladi. Oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlarning integratsiyasi mehnat bozorining ehtiyojlariga mos mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

- Korxona va tashkilotlarda muassasa kafedralari filiallarini tashkil etish.
 - Ish beruvchilarning oliy o'quv yurtlariga homiylik ko'magi berishi.
 - Mutaxassislarni kontraktatsiya shartnomalari asosida tayyorlash va ishga yo'naltirish.
 - Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
- Shuningdek, ish beruvchi tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli integratsiyasi muassasalarni jihozlash, laboratoriyalar tashkil etish va beg'araz yordamlar ko'rsatish kabi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda

METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiqot ishi metodologiyasi mavzuning dolzarbligi yuqoriligini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari va ma'ruzalarida mavzu doirasida ko'rsatilgan muammolar va ularning hal etilish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bu masala ko'pgina olimlar [4-12] tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, ilmiy tadqiqotchilarning ““fan – ta'lim – ishlab chiqarish” milliy innovatsion tizimini shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning ilg'or universitetlaridan faqat fundamental tadqiqot doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormasdan, balki ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning boshqa shakllarini ham qo'llashni talab qiladi” [3], “Fan ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish insoniyatga, inson esa olamning moddiy va ma'naviy ravnaqiga xizmat qilganidagina maqsadga muvofiqlik sodir bo'ladi” [7; 11-b.],

“Universitetning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri innovatsion-sanoat komplekslari va texnoparklar yaratish yo‘li bilan erishiladigan ta’limiy, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyati integratsiyasidir” [8; s.39] deb ta’kidlashlari ilm-fan, oliy ta’lim va ish beruvchi tashkilotlar o‘zaro hamkorligining dolzarblik darajasini yanada oshiradi.

Yuqoridagi me’yoriy hujjatlar talablari va kun tartibiga qo‘yilgan masalalar dolzarblik darajasining yuqoriligi quyidagi savollarga javob topishni taqozo etmoqda:

- O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlash, uning mavqeyi va nufuzini oshirish uchun yaqin va uzoq istiqbolda, masalan 2021-2025-yillarda, 2026-2030-yillar va undan keyingi yillarda kadrlar qanday bilim va ko‘nikmaga, malakaga va tajribaga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq?

- Respublika iqtisodiyotini, YAIM miqdorini, aholi jon boshiga ishlab chiqariladigan yillik mahsulot qiymatini oshirish uchun amaldagi tasniflagich bo‘yicha bilim va ta’lim sohalarining qaysi ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklar asosida bakalavrlar va magistrlar tayyorlanishi lozim, qaysi mutaxassislar yetishmaydi, qaysi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar ortiqcha tayyorlanmoqda, buning oqibatida jamiyatda qanday muammolar vujudga kelmoqda?

- Oliy o‘quv yurtlari bilan ish beruvchi tashkilotlar o‘rtasida qanday hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan, bu aloqalar qanday yo‘lga qo‘yilgan, bu borada qanday natijalar mavjud, ularning faoliyatlarini kim tashkil etadi, tartibga soladi va nazorat qiladi?

- Oliy o‘quv yurtlari bilan ish beruvchi korxona va tashkilotlar o‘zaro integratsiyasidan qanday manfaatlar nazarda tutilgan?

- Oliy ta’lim texnologiyasi bilan ishlab chiqarish texnologiyasi yo‘nalishlari o‘rtasida qanday mutanosibliklar, o‘xshashliklar yoki kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar mavjud, yaqin istiqbolda ularning shakli va mazmunida qanday o‘zgarishlar kutilmoqda?

- Professional ta’lim muassasalarida kichik mutaxassislar, oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni boshqarishda ish beruvchi tashkilotlar bilan ta’lim tizimi rahbar va soha mutaxassislari munosabatlarida qanday muammolar vujudga kelmoqda, bu muammolar qachon, kim tomonidan va qanday tartibda bartaraf etiladi?

- Ish beruvchi tashkilotlar tomonidan shakllantirilib, OTMlariga taqdim etilgan buyurtmalar portfeli, ya’ni “keyingi besh-o‘n yillikda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga bo‘lgan talablar soni jadvali” haqiqiy talab va ehtiyojlarni o‘z ichiga qamrab olganmi?

- “Buyurtmalar portfeli”ni OTMga taqdim etgan korxona rahbari har qanday vaziyat (rahbarning ishdan olinishi, korxona ishlab chiqarish yo‘nalishining o‘zgarishi va b.)da, shu talabalar o‘qishni tugatgach, yuqori malakali kadrlar muassasani bitirganlaridan keyin belgilangan muddat davomida ishga qabul qila oladimi?

- Oliy o'quv yurtlarida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun moddiy texnik baza, professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati talabga javob beradimi, talabalarga qanday qo'shimcha intellektual bilimlar berish lozim?

- Ish beruvchilar o'zlarining buyurtmalariga muvofiq oliy o'quv yurtlari da o'qiyotgan talabalarga qanday ta'lim berilayotganligi, bu ta'lim asosida talabalar qanday intellektual kapitalga ega bo'layotganliklari, malakaviy amaliyotlardan qanday foydalanayotganliklari, bitiruv-malakaviy ish va magistrlik dissertatsiyalarini qanday tayyorlayotganliklari va himoya qilayotganliklari bilan qiziqyaptilarmi?

Bu munozarali holatlarga ilmiy-tadqiqot ishi natijalari asosida yechim topiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyul PQ-3151-sonli Qarori [1] yuqorida keltirilgan masalalarning huquqiy-me'yoriy va nazariy asosi hisoblanadi. Mazkur me'yoriy hujjatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining komplekslari rahbarlari, tegishli vazirliklar va idoralar rahbarlari nazorati asosida amalga oshiriladigan asosiy ustuvor vazifalar sifatida bir oy muddatda kadrlar buyurtmachilari va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash mazmuni, bitiruvchilarning bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni mujassamlashtiruvchi oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining malakaviy talablari, o'quv rejalari va dasturlarini soha ehtiyojidan kelib chiqib, yangidan ishlab chiqish hamda tasdiqlash; oliy o'quv yurtlari ning tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha har bir talabasining 2-kursdan boshlab tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o'tkazilishini, shuningdek ularning amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish hamda bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rish; o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy o'quv yurtlari ni zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy o'quv yurtlari ning zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko'rish; ish beruvchi tashkilotlar va tashkilotlarining mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talablarini bevosita ta'lim mazmunini shakllantirish bilan shug'ullanadigan oliy o'quv yurtlari profil kafedralarining professor-o'qituvchilari tomonidan tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish vazifalari belgilab berilgan [1].

Bugungi davrgacha bu masalalar muammoligicha qolayotganligi va ularning hal etilish yo'llari aniqlanmaganligi hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ko'p marta e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2018-yil 24-oktyabrda oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish

integratsiyasini kengaytirish masalalariga bagʻishlangan yigʻilishda aytib oʻtilganidek, “Ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratilmagan. Taʼlim jarayoniga innovatsion metodikalarni joriy etish, oʻquv dasturlarining ishlab chiqarish bilan hamohangligini taʼminlash va eng asosiysi, professor-oʻqituvchilar malakasini oshirish ishlari umuman qoniqarsiz ahvolda” [3].

Oliy taʼlim xizmatlari bozori mehnat bozori uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berayotganligi amaliyotini eʼtiborga olinsa, iqtisodiyot tarmoq va sohalarining ishlab chiqarish amaliyoti tizimlarining kadrlar tayyorlash yoʻnalishlaridagi mavqeyini yuksaltirish quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish asosida amalga oshiriladi deb hisoblaymiz: [2]

1) Amaliyot tizimlarining ehtiyoj va talablariga koʻra, kelajak kasblari, yoʻnalishlar va mutaxassisliklari (aerodinamika, raqamli iqtisodiyot, robototexnika va b.) texnika va texnologiyalarni taraqqiy ettirishning yangi yoʻnalishlari boʻyicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

2) Yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish.

3) Professor-oʻqituvchilar va ilmiy xodimlarning zamonaviy texnologiyalar sohasidagi malakasini ishlab chiqarish amaliyoti tizimlarida muntazam ravishda oshirib borish.

4) Ishlab chiqarish amaliyoti tizimlari obyektlarining yuqori malakali kadrlarini taʼlim dasturlarini tuzish va ilmiy-pedagogik jarayonga jalb etish.

5) Ishlab chiqarish amaliyoti tizimlaridagi iqtisodiy va texnologik muammolarni hal etish uchun oliy oʻquv yurtlari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb qilish.

6) Taʼlimni korxonada faoliyat olib boruvchilarning samarali mehnati bilan, shu jumladan, ishlab chiqarish amaliyoti jarayonlaridagi mehnat bilan birgalikda qoʻshib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish.

7) Oʻzaro manfaatli shartlarda integratsiyaga kirishilgan professional va oliy oʻquv yurtlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlashni taʼminlash;

8) Taʼlim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (jamoaga koʻniktirish, jamoani boshqarish, mehnat, maʼnaviy-maʼrifiy, ijtimoiy-ruhiy va jismoniy tarbiyalash)

9) Ishlab chiqarish amaliyotining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida taʼlim oluvchilar va malakaviy amaliyotchilarni yetarli darajada ish joylari va sharoitlari bilan taʼminlash va b.

Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga yoʻnaltirilgan qonunlar, boshqa meʼyoriy hujjatlar va ularning ijrosi uzluksiz taʼlim

tizimiga, jumladan oliy o'quv yurtlarining taraqqiyotiga bevosita ijobiy hissa qo'shadi. Vaholanki, bu muassasalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirishda ilm-fan bilan oliy ta'limning integratsiyasi bo'lgani kabi ishlab chiqarishning ham oliy ta'lim tizimi bilan o'zaro manfaatli hamkorligining muhim ahamiyati mavjudligi isbot talab qilmaydi.

Oliy o'quv yurtlarida tayyorlangan yuqori malakali kadrlar va ularning istiqboldagi mehnat faoliyatlarida vujudga kelayotgan kasbiy malaka yuzasidan muvofiqliklar va ziddiyatlar, bitiruvchi bakalavrlar va magistrnlarning o'qish jarayonida oliy ta'lim va ishlab chiqarish tizimining o'zaro hamkorligi darajasiga bevosita bog'liqdir. Vaholanki, bu integratsiyada talabaning fanlarni ketma-ketlikka asoslangan holda o'rganishi, bu nazariy bilim va ko'nikmalarni malakaviy amaliyot davrida amaliy uquv va malakalarga bog'lashi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, OTMlari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi integratsiya o'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilmas ekan, u holda oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarning ishga joylashgan korxona va tashkilotlarida mehnat faoliyatiga moslashuv muddatlari orqaga surilishi muqarrar. Shuningdek, taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj o'zgacha tarzda qondiriladi, ya'ni davlat va nodavlat korxonalarida yuqori malakali kadrning olgan diplomida qayd etilgan ta'lim yo'nalishi, mutaxassisligi va malakasi unchalik muhim bo'lmasdan, balki uning OTMda egallagan bilimi, uquvi, ko'nikmasi hamda bularni amaliyotga qo'llay olish darajasi nisbatan muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur masalalar munozarali bo'lib, bugungi kunga qadar kun tartibida o'z o'rniga ega. Bu muammolarga o'z vaqtida yechim topish soha rahbarlari, mutaxassislar va integratsiya ishtirokchilarining zimmasidagi mas'uliyat hisoblanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero, jamiyatda yuqori malakali, zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, xorijiy tillarni va kompyuter texnologiyalarini yaxshi biladigan, rivojlangan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini bitirayotgan tengdoshlari bilan sog'lom raqobatga kirisha oladigan, o'z mehnat faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlamasdan ijobiy natijalarga erishish aslida mumkin emas. Integratsiya ishtirokchilarining samarali hamkorligi sohalarning rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyul PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va

tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3286194>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel PQ-2909 "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-3171590>

3. Mirziyoyev Sh.M. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi. – Toshkent, 2018-yil 24-oktabr.

4. Begalov B.A., Jukovskaya I.YE. Visshieye uchebniye zavedeniya v formirovanii natsionalnoy innovatsionnoy sistemi strani // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2012. – 4.

5. Vahobov A., Eraliyev H. Inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar samaradorligini oshirishning nazariy jihatlari // Birja Ekspert. – 2010. – 6. – 3-6–betlar.

6. Junko Takeuchi. Janubiy-sharqiy Osiyodagi Yaponiya kompaniyalari filiallarida ishga yollash va inson resurslarini rivojlantirish (Employment and Human Resource Development in Japanese-affiliated Manufacturers in Southeast Asia, <http://www.jri.co.jp/english/periodical/rim/1998/RIMe199804employ/>)

7. Ismatov I. Fan va ishlab chiqarishning yaxlitligi xususida // Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarning o'zaro integratsiyalashuvi muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining maqola va tezislari to'plami. – Toshkent. – 2010. – 9-11-b.

8. Navatova A.D. Rol reform visshego obrazovaniya Kirgizskoy Respubliki v podgotovke konkurentosposobnix vipusnikov // Vissheye obrazovaniye Kirgizskoy Respubliki. – 2008. – 2 (12). – s.36-39.

9. Neborskiy YE.V. Modeli integratsii obrazovaniya, nauki i biznesa v universitetax SSHA, Yevropi i Yaponii // Problemi sovremennogo obrazovaniya. 2011 g. – №1. – 48-59-s.

10. Ochilov A.O. Fan, oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani samarali boshqarish yo'llari // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2012. – 6. – 146-148-b.

11. Rajabov O'D. Botirov Q.A. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvining bitiruvchilar bandligini ta'minlashdagi ahamiyati. Zamonaviy ta'lim / sovremennoye obrazovaniye. – 2015. – 2.

12. Xolmuminov Sh.R. O konsepsii modernizatsii obrazovaniya // Obrazovaniye i sotsialno-ekonomicheskoye razvitiye v nachale tretyego tisyacheletiya. Tez. dokl. konf. «XIX-Mejdunarodniye Plexanovskiye chteniya», posvyashennoy 10-letnemu yubileyu Filiala REA im. G.V. Plexanova v g. Tashkente. 2-fevralya 2006 goda. – T., 2006. – chast I. – S. 17-19.